

JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISHNI TUBDAN TAKOMILLASHTIRISH

Tilavov Ulug'bek Baxtiyor o'g'li

*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Akademiyasi 3-o'quv kursi 305-guruh kursanti*

ANOTATSIYA

Ushbu maqola orqali muallif huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan jinoyatchilikka qarashi kurashishni tubdan takomillashtirishni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda normative-huquqiy hujjatlardan foydalangan holda tushunchalarni yoritib o'tgan.

Kalit so'zlar: *jinoyat, jinoyatchilikka qarshi kurashish, kiber jinoyat, huquqiy ong, huquqiy madaniyat.*

АННОТАЦИЯ

Посредством данной статьи автор выделил коренное улучшение подхода к преступлению со стороны правоохранительных органов, используя законы и нормативно-правовые документы Республики Узбекистан.

Ключевые слова: *преступность, борьба с преступностью, киберпреступность, правосознание, правовая культура.*

ANNOTATION

Through this article, the author highlighted the fundamental improvement of the approach to crime by law enforcement agencies, using the laws and normative legal documents of the Republic of Uzbekistan.

Key words: *crime, fight against crime, cyber crime, legal consciousness, legal culture.*

1791-yilda qabul qilingan Fransiya Jinoyat kodeksida birinchi bor ta'rif berilgan bo'lib, ushbu ta'rif formal tusga ega edi. Yani (Jinoyat bu-amaldagi jinoyat qonuni bilan jazolanadigan qilmishdir) deya ta'rif berilgan edi.

Jinoyat: Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahtidi bilan jinoyat deb topiladi.

Jinoyatchilikka qarshi kurash: -jinoyat sodir etilishiga imron tug'diruvchi faktorlarni bartaraf qilish hamda jinoyatlarning oldini olish, ochish, jinoyatchilarni qidirish, shu bilan birga tergov qilish, odil sudlovni amalga oshirish, jinoyat sodir etgan shaxsni tuzatish, jazoni o'tab chiqqan so'ng ularni axloqini nazorat qilish, shu bilan birgalikda jinoyatnisalbiy oqibatlarini tugatishga qaratilgan huquqiy, ruhiy, iqtisodiy-siyosiy hamda tashkiliy choralar yig'indisi hisoblanadi.

Jahon mamlakatlari kundan kunga rivojlanishi sari jinoyatchilikning turlari va usullari ham o'zgarmoqda. Xususan, yurtimizda ham o'z aksini ko'rsatmoqda. Ushbu jinoyatlarga qarshi kurashish usullarining ham o'zgarishiga olib keldi. Bugungi kunda global axborot maydonida kiber makon bilan bog'liq yangidan-yangi tahtidlar yuzaga kelmoqda. Shu bois virtual olamdagi hujumlardan himoyalalanish masalasi dunyo hamjamiyatini jiddiy tashvishga solmoqda. Tahlillarga ko'ra dunyo bo'ylab har yili 500 milliondan ortiq kiber hujumlar uyushtiriladi, har soniyada 12 nafar insondan biri kiber makonda sodir etilgan hujumlar qurboniga aylanadi. Amerika Qo'shma Shtatlari, Fransiya, Angliya, Germaniya, Belgiya, Lyuksemburg kabi rivojlangan davlatlarda jinoyatlarning 65% kiber hujumlar orqali sodir etilmoqda. O'zbekistonda ham so'nggi 3yilda bu turdagi jinoyatlar 8.3 baravarga ko'payib 5%ga yetgan. Xususan, noqonuniy bank-moliya operatsiyalari orqali o'zlarining plastic kartadagi mablag'larini o'zlashtirish, zararli viruslar tarqatish, qumor va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlar, diniy aqidaparasnlikka qaratilgan axborot hujjatlari, onlayn savdo maydonidagi firibgarlik jinoyanlar ko'payib bormoqda.

Achinarlisi, axborot texnologiyalari yordamida huqubuzarlik va jinoyatga qo'l urgan shaxslarorasida yoshlar ko'pchilikni tashkil etmoqda. Respublikamizda virtual olamdagi qonun buzilshlarning aksariyati 16-23 yosh orasidagi o'smir-yoshlar tomonidan sodir qilinmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, kiber xavfsizlikni taminlash masalasi bugun har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda axborot xavfsizligi masalasiga davlat siyosati darajasida etibor qaratilib kiber jinoyatchilikka qarshi kurashishning yangi yondashuvlari amaliyotga joriy qilinmoqda.

Bugungi kunda fuqarolarning plastic kartalardagi mablag'larini takon-taroj qilish bilan bog'liq jinoyatlar soni kun sayin ortib borayotganligi xech kimga sir emas. Xususan, Toshkent shaharda 2022 yil davomida 3372 ta jinoyat sodir etilishiga yo'l qoyilgan. SHuningdek, joriy yilning bugungi kunga qadar fuqarolar tomonidan bank plastik kartasi bilan bog'liq 13330 ta murojat kelib tushgan. Mfzkur turdagi jinoyatlar asosan quydagi usullar orqali codir etilishi mumkin:

- “Telegram” ijtimoiy tarmog'idagi savdo xonalaro yoki “Olx” platformasida sotuvchi yoki xaridor (bu usul bilan asosan erkaklarning aksariyati jabrlangan);
- Moddiy yordam, onlayn kredit, yutuqli o'yin g'olibi kabi aldovlar bilan tuborilgan soxta havola;
- Telefon sung'iroqlari davomida o'zining “Cilck” kompaniyasi yoki bank xavfsizlik hodimi deb tanishtirib tasdiqlovchi kodni so'rab olish natijasida;
- Soxta onlayn birja va treyding faoliyati;
- “Telegram” ijtimoiy tarmog'I yoki “olx” platformasida ijaraga kvartira yoki dacha olish kabilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyev raisligida 2022 yil 20-noyabr kuni Jinoyanchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olishda davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligiga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi. Ushbu yig'ilishda davlatimiz rahbari sud, prokuratura va ichki ishlar organlari faoliyati to'g'risida alohida to'xtalib, jinoyatlarning yashirilishiga favqulodda holat sifatida qaralishi lozimligi, qamoq aybdorlarni tarbiyalashning asosiy vositasi bo'lmasligi, ularga jazo tayinlashda aybdorning shaxsi va boshqa holatlarni atroflicha o'rganish muhimligiga alohida etibor qaratdi. Ayniqsa, voyaga yetmaganlar va ayollarga jazo nayinlashda sudning chuqur mulohaza yuritishi lozimligi ta'kidlandi.

Prezidentimiz jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olishda aholining huquqiy madaniyatini oshirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratdi. Har bir mahallani jinoyatchilikdan holi hududga aylantirish lozimligini ta'kidlab, bu borada sa'y-harakatlarni yanada kuchaytirish zarurligini qayd etdi.

“Jinoyatga qarshi kurash haqiqati va adolati” tizimini joriy etishga qaratilgan ayollar, maktab o'quvchilari, yoshlar yoki boshqa aholi qatlamlari tomonidan jinoyat sodir etilganligi holatlari bo'yicha vazirlik va idoralarning masul rahbarlari tomonidan joylarga borib, jinoyatning sabablarini o'rganish va jamoatchilik orasida muhokama qilish, jinoyat kelgusida takrorlanishining oldini olishga qaratilgan aniq choralar ko'rish, jinoyatga qarshi kurashish adolatini taminlash orqali jinoyat sodir etgan aybdor shaxslar aniqlanib, ularga nisbatan qonun ustuvorligi va jazo muqarrarligi asosida qat'iy choralar ko'rish hamda bu jarayonlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritish tartibi joriy qilinsin”.³ Ushbu tizim jinoyanchilikka qarshi kurashishning ahamiyatli yondashuvlardan biri hisoblanadi.

Jinoyatlarning turlari va usullari o'zgarishi sari unga qarshi kurashish usullarining o'zgarishiga olib keldi. Mamlaratimiz Huquqni muhofaza qiluvchi organlari tomonidan jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida xorij tajribalari o'rganilib chiqilmoqda.

Barmoq izlari identifikatsiyasi nafaqat qo'lga olinganlarni barmoq izi namunlarini olish, balki voqea joyida gumonlanuvchining bo'lganligi yoxud bo'lmaganligi to'g'risida dalillarga ega bo'lish imkonini beradi. Xuan Vuchetich (Argentina) birinchilardan bo'lib kriminalistik maqsadlarda inson qo'llarining kapillar chiziqlaridan foydana boshlagan. 1891-yil sentabr oyida bu antropolog barmoq izlari uchun o'n barmoqli tasnif tizimini ishlab chidi. Bengaliyada politsiya boshlig'I bo'lib ishlagan ingliz Edvard Genrining karta ko'rsatkichlarini barmoq izlari bilan ro'yxatdan o'tkazish tizimi butun dunyo bo'ylab tarqaldi. Kovpyuterdan oldingi davrda har qanday barmoq izlarini aniqlash tizimidan foydalanish birmuncha qiyinchiliklarni yuzaga keltirardi. Jinoyat ishi bo'yicha o'tayotgan shaxsning barmoq izlar kartasini voqea joyida topilgan barmoq izi namunalari bilan vizual tarzda solishtirish talab qilingan. Bugungi kunda jinoyatchilikka qarshi kurashish maqsadida fuqarolarning barmoq

izlari olinib milliy va xaqqaro banklar yaratilgan, politsiya hodimlari ushbu bazadan foydalanishi natijasida jinoyatlarni fosh etishi samaradorligi ortdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tezkor qidiruv faoliyati to'g'risidagi 2012 yil 25 dekabrda qonun elektron manbaa: Lex.uz sayti <https://lex.uz/docs/-2107763>
2. Wikipediya ma'lumoti elektron manbaa: https://uz.wikipedia.org/wiki/Jinoyatchilikka_qarshi_kurash
3. Tezkor-qidiruv faoliyati o'quv qo'llanma V.Karimov, A.Xakberdiyev T. 2020 y
4. Kibermakonda sodir etilayotgan jinoyatlarga qarshi kurashish: muammolar va yechimlar. Maqola IIV Akademiyasi rasmiy veb sayti. Elektron manbaa: <https://akadmvd.uz/oz/news/kiber-makonda-sodir-etilaetgan-zhinojatlarga-arshi-kurashish-muammolar-va-echimlar>
5. "Mamlakatda jinoyatlarning barvaqt oldini olish va huquqbuzarliklarga qarshi kurash holati to'g'risida" 11.08.2018 yildagi 1896-III-sonli O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi qonunchilik palatasi kengashining va O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi senati kengashining qo'shma qarori elektron manbaa: Lex.uz sayti <https://lex.uz/ru/docs/-4270358>
6. Bank plastik kartasi bilan bog'liq jinoyatlarning qurboni bo'lishdan saqlaning maqola. IIVning rasmiy veb sayti elektron manbaa: <https://iiv.uz/news/bank-plastik-kartasi-bilan-bogliq-jinoyatlarning-qurboni-bolishdan-saqlaning>